

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



2019 yilning yanvar-iyul oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Xorazm viloyatida jami 1451,9 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`sish surati o`tgan yilning mos davriga nisbatan

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi-

1451,9 mlrd.so`m

Yirik pudrat tashkilotlari ulushi-**6,3 %**

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi-

64,0 %

Norasmiy sektor ulushi-

29,7 %

115,1 foizni tashkil etdi. Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 92,1 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,3 foiz hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan 78,2 foizni tashkil etdi. Kichik korxona va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 64,0 foizni yoki 928,8 mlrd.so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`sish sur`ati 134,0 foizni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 29,7 foiz yoki 430,9 mlrd.so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`sish sur`ati 95,0 foizni tashkil etdi.



Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi **92,1 mlrd.so`m**
- o`sish sur`ati - **78,2 foiz**



Kichik korxona va mikrofirmalar


- hajmi - **928,8 mlrd.so`m**
- o`sish sur`ati - **134,0 foiz**



Norasmiy sektor

- hajmi - **430,9 mlrd.so`m**
- o`sish sur`ati - **95,0 foiz**

2019 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari (mlrd.so`m)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismini qurilish loyihalari, ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlari tashkil etadi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 80,0 foizni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 foiz punktga ko‘paydi.


Fuqarolik qurilishi ob’ektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda jamiga nisbatan ulushi 13,5 %ni tashkil etib, o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,2 % foiz punktga ko‘paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 6,5 % to‘g‘ri kelib, o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan ulushi 3,1 foiz punktga kamaydi.


2019 yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlaring iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



2019 yil yanvar-iyul oylarida subyektlar bo`yicha qurilish ishlari (mlrd.so`m)



2019 yil yanvar-iyul




2018 yil yanvar-iyul

Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 92,1 mlrd. so`mlik yoki o`sish sur`ati 78,2 foizni tashkil qilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 6,3 foizni tashkil qildi.


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 928,8 mlrd. so`mlik yoki o`sish sur`ati 134,0 foizni tashkil qilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 64,0 foizni tashkil qildi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 430,9 mlrd. so`mlik yoki o`sish sur`ati 95,0 foizni tashkil qilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 29,7 foizni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-iyul oylarida Iqtisodiy faoliyat turlarining mulkchilik shakllari bo`yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1349,6 mlrd. so`mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo`lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 93,0 foizini tashkil



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 102,3 mlrd. so`mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo`lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 7,0 foizini tashkil qildi

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

№	Shahar tumanlar	2018 yil yanvar-iyul (mlrd.so'm)	2019 yil yanvar-iyul (mlrd.so'm)	O'tgan yilga nisbatan foizi (%)	Jamiga nisbatan ulushi (foizda<br %)<="" b=""/>
Viloyat jami:		1124,4	1451,9	115,1	100,0
1	Urganch shahar	263,4	326,7	110,9	22,5
2	Xiva shahar	45,3	54,7	108,3	3,8
	Tumanlar				
3	Bog`ot tumani	73,9	81,6	98,5	5,6
4	Gurlan tumani	73,7	91,3	110,0	6,3
5	Qo`shko`pir tumani	65,4	79,5	108,3	5,5
6	Urganch tumani	98,3	136	123,5	9,4
7	Xazorasp tumani	45,8	78,2	150,9	5,4
8	Xonqa tumani	86,4	106,5	109,8	7,3
9	Xiva tumani	173,9	209,4	108,3	14,4
10	Shovot tumani	82,4	97,5	105,8	6,7
11	Yangiariq tumani	42	91,9	192,1	6,3
12	Yangibozor tumani	73,9	98,6	117,4	6,8

Shahar (tuman)larda binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari, Urganch shahar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 326,7 mlrd. so'mlik yoki o'sish sur'ati 110,9 foizni tashkil qilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 22,5 foizni tashkil qildi, Xiva tumani tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 209,4 mlrd. so'mlik yoki o'sish sur'ati 108,3 foizni tashkil qilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 14,4 foizni tashkil qildi,

2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi (mlrd.so`m)

Urganch.sh	<ul style="list-style-type: none">•Yirik tashkilotlar - 28,0 mlrd.so`m•Kichik korxona va mikrofirmalar - 229,2 mlrd.so`m•Norasmiy sektor -69,4 mlrd.so`m
Xiva.sh	<ul style="list-style-type: none">•Yirik tashkilotlar - 1,2 mlrd.so`m•Kichik korxona va mikrofirmalar - 46,9 mlrd.so`m•Norasmiy sektor -6,6 mlrd.so`m
Bog`ot	<ul style="list-style-type: none">•Yirik tashkilotlar - 4,7 mlrd.so`m•Kichik korxona va mikrofirmalar - 53,3 mlrd.so`m•Norasmiy sektor -23,6 mlrd.so`m
Gurlan	<ul style="list-style-type: none">•Yirik tashkilotlar - 0,0 mlrd.so`m•Kichik korxona va mikrofirmalar - 52,7 mlrd.so`m•Norasmiy sektor -38,7 mlrd.so`m
Qo`shko`pir	<ul style="list-style-type: none">•Yirik tashkilotlar - 7,6 mlrd.so`m•Kichik korxona va mikrofirmalar - 42,5 mlrd.so`m•Norasmiy sektor -29,4 mlrd.so`m
Urganch	<ul style="list-style-type: none">•Yirik tashkilotlar - 11,3 mlrd.so`m•Kichik korxona va mikrofirmalar - 85,9 mlrd.so`m•Norasmiy sektor - 38,8 mlrd.so`m
Hazorasp	<ul style="list-style-type: none">•Yirik tashkilotlar - 0,3 mlrd.so`m•Kichik korxona va mikrofirmalar -45,9 mlrd.so`m•Norasmiy sektor - 32,0 mlrd.so`m
Xonqa	<ul style="list-style-type: none">•Yirik tashkilotlar - 10,9 mlrd.so`m•Kichik korxona va mikrofirmalar - 65,9 mlrd.so`m•Norasmiy sektor - 29,6 mlrd.so`m
Xiva	<ul style="list-style-type: none">•Yirik tashkilotlar - 19,9 mlrd.so`m•Kichik korxona va mikrofirmalar - 174,9 mlrd.so`m•Norasmiy sektor - 14,7 mlrd.so`m
Shovot	<ul style="list-style-type: none">•Yirik tashkilotlar - 0,0 mlrd.so`m•Kichik korxona va mikrofirmalar - 74,6 mlrd.so`m•Norasmiy sektor - 22,9 mlrd.so`m
Yangiariq	<ul style="list-style-type: none">•Yirik tashkilotlar - 0,0 mlrd.so`m•Kichik korxona va mikrofirmalar - 26,5 mlrd.so`m•Norasmiy sektor - 65,3 mlrd.so`m
Yangibozor	<ul style="list-style-type: none">•Yirik tashkilotlar - 8,4 mlrd.so`m•Kichik korxona va mikrofirmalar - 30,3 mlrd.so`m•Norasmiy sektor - 59,9 mlrd.so`m

Shahar (tuman)larda binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari, Urganch shahar tomonidan yirik qurilish tashkilotlari hajmi 28,0 mlrd. so'mlik yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 70,5 foizni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qurilish ishlari hajmi 229,2 mlrd. so'mlik yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 125,9 foizni tashkil qildi.

Norasmiy sektor tomonidan qurilish ishlari hajmi 69,4 mlrd. so'mlik yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 94,9 foizni tashkil qildi.

Urganch tumani tomonidan yirik qurilish tashkilotlari hajmi 11,3 mlrd. so'mlik yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 104,9 foizni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qurilish ishlari hajmi 85,9 mlrd. so'mlik yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 116,6 foizni tashkil qildi.

Norasmiy sektor tomonidan qurilish ishlari hajmi 38,8 mlrd. so'mlik yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 152,3 foizni tashkil qildi.

Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: N.Bekchanova
Telefon: (0362) 224-65-22